ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ
THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT
ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ
ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-2, (February) 2024
Journal homepage: https://imfaktor.com/index.php/tjrd

NURMATOVA Muqaddas Uralovna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliy akademiyasi magistranti

AHOLIGA PENSIYA TAYINLASHDAGI XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA NORMATIV –HUQUQIY HUJJATLARNING O‘RNI

ANNOTATSIYA

Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda pensiya tizimining o‘rni, pensiya ta’minoti tizimida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlari, hususan, sohaga doir chiqayotgan normativ – huquqiy hujjatlar va ularning ijro holati, shuningdek pensiya tizimining bugungi kundagi holatlari tahlil qilingan. Maqola so‘nggida tadqiqotdan olingan xulosalar va sohani takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pensiya, pensiya ta’minoti tizimi, pensiya jamg‘armasi, o‘rtacha oylik ish haqi, eng kam oylik ish haqi, yagona ijtimoiy to‘lov, nafaqalar, konsepsiya, sug‘urta badali, jamg‘arib boriladigan pensiya.

РОЛЬ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ПЕНСИОННОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Роль пенсионной системы в социальной поддержке населения, реформы, реализованные в пенсионной системе за последние годы, в частности, нормативно-правовые документы, изданные в сфере, и состояние их реализации, а также современное состояние. пенсионной системы. В конце статьи сформулированы выводы исследования и предложения и рекомендации по совершенствованию отрасли.

Ключевые слова: пенсия, пенсионная система, пенсионный фонд, среднемесячная заработная плата, минимальная месячная заработная плата, единая социальная выплата, льготы, понятие, страховой взнос, накопительная пенсия.

REFORMS IN THE PENSION SYSTEM IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

The role of the pension system in the social support of the population, the reforms implemented in the pension system in recent years, in particular, the regulatory and legal documents issued in the field and their implementation status, as well as the current state of the pension system are analyzed. At the end of the article, the conclusions obtained from the research and proposals and recommendations for the improvement of the field are developed.

Keywords:pension, pension system, Pension Fund, average monthly wage, minimum monthly wage, single social payment, social benefits, the Concept, insurance fee, accumulative pension.

O‘zbekiston mustaqil va o‘zining uzoq yillik tarixiga ega mamlakat hisoblanadi. Ayni damda 36 milliondan ortiq aholi (Statistika qo‘mitasi, 2022) soniga ega mamlakatimiz har sohada izchillik bilan rivojlanib bormoqda. Ammo, demografik o‘zgarishlar, jumladan, doimiy aholi sonining oshib borishi natijasida ayrim sohalarda, xususan, pensiya tizimida bir muncha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ya’ni, 2017 yilning o‘zida mamlakat aholisi 533,4 ming kishiga ko‘paygan. 2018-2025 yillarda qilingan prognozlarga ko‘ra pensiya yoshidagi aholi ulushining 1,2 mln. kishiga oshishi kutilmoqda. Bu esa mamlakat aholisi tarkibida pensiya yoshidagi shaxslar ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Statistika organlari ma’lumotlariga ko‘ra 2022 yildan boshlab pensiya yoshidagi shaxslar soni 11 foizdan oshadi va 2025 yilga kelib 14 foiz darajasiga yetadi. Shuningdek, 2016 yildan boshlab mamlakatda pensiya tayinlash uchun yillik murojaatlar soni oshgan (o‘rtacha yillik o‘sish – 16ming kishi) va bu o‘sish 2025 yilga kelib 300 ming kishidan oshadi [1, B.9].

Shavkat Mirziyoev 31 oktyabr kuni «Aholiga pensiya tayinlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Bu haqda Adliya vazirligi xabar qildi [2].

Qarorga ko‘ra, 2024 yil 1 yanvardan:

- fuqarolarga pensiya tayinlash uchun amaldagi tartibga qo‘shimcha ravishda ularning xohishiga ko‘ra DXM yoki YaIDXP (my.gov.uz) orqali ham murojaat qilish huquqi beriladi;
- fuqarolar pensiya tayinlanganidan so‘ng shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larini YaIDXP yoki AT «Xalq banki»ning mobil ilovasi orqali olishi mumkin bo‘ladi.

Bunda, Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larni olish huquqini beruvchi sertifikat berish tartibi bekor qilinadi.

2025 yil 1 martdan fuqarolarga **yoshga doir pensiyalarni** «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunda belgilangan yoshga to‘lishi munosabati bilan **alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibi** joriy etiladi.

Bunda, yoshga doir pensiyalar Pensiya jamg‘armasining axborot tizimi orqali tegishli vazirlik va idoralararo axborot almashinuvi asosida olinadigan fuqaroning ish staji, ish haqi hamda boshqa ma’lumotlariga asosan hisoblanadi va tayinlanadi.

Fuqarolarga pensiya yoshiga yetib mehnat faoliyatini davom ettirgan holda keyinchalik yoshga doir pensiyaga chiqish istagini bildirganida proaktiv shaklda tayinlangan pensiyani rad qilish huquqi beriladi. 2025 yil 1 martgacha fuqarolarga pensiya tayinlanishi yoki pensiya miqdoriga ta’sir qiluvchi qo‘shimcha hujjatlarni taqdim etish yuzasidan fuqaroning mobil aloqa vositasiga SMS-xabar yuborish tartibi joriy etiladi.

1-jadval

Markaziy davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlaridagi pensiya yoshi
(Pensiya jamg‘armasi, 2019)

Mamlakatlar	**Pensiya yoshi**		
	erkaklar		**Ayollar**
Armaniston	63		63
Ozarbayjon	65		63
Qozog‘iston	63		58
Qirg‘iziston	63		58
Tojikiston	63		58
Turkmaniston	62		57
O‘zbekiston	**60**		**55**

Yuqoridagilarni tahliliga e'tibor qilsak, MDH mamlakatlarida pensiya yoshi deyarli bir xil. O'zbekistonda esa pensiya yoshi bugungi kunda erkaklar uchun – 55 yosh, ayollar uchun 60 yosh. O'zbekistonda 2019-2030 yillarda davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish Konsepsiyasiga ko'ra pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirish masalasi asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. O'zbekistonda pensiya yoshini oshirish bo'yicha quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

2019-2030 yillarda davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish Konsepsiyasiga ko'ra O'zbekistonda pensiya yoshining oshirilishi (Pensiya jamg'armasi, 2019)

№	Yillar	Erkak	Ayol
1	01.01.2022 yildan	60 yosh 6 oy	55 yosh 6 oy
2	01.01.2023 yildan	61 yosh	56 yosh
3	01.01.2024 yildan	61 yosh 6 oy	56 yosh 6 oy
4	01.01.2025 yildan	62 yosh	57 yosh
5	01.01.2026 yildan	62 yosh 6 oy	57 yosh 6 oy
6	01.01.2027 yildan	63 yosh	58 yosh

Jahon bankining bergan ma'lumotlariga ko'ra 1990 yilda dunyo aholisining deyarli yarim milliarddan ortig'ini 60 yoshga oshganlar tashkil etgan bo'lsa, 2030 yilga borib bu ko'rsatkich 1,4 milliardga yetadi (World Bank, 1994).

Pensiya ta'minoti tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish,ularning yechimini izlab topish hozirgi kunda, dunyodagi demografik o'zgarishlar va aholining ijtimoiy farovonlik darajasi oshib borish sharoitida dolzarb hamda yechimini kutayotgan masaladir. Bunday sharoitda ushbu tizimda hukumatlararo islohotlar olib borish muhim hisoblanadi. Pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish, ilmiy-amaliy jihatdan rivojlantirish borasida qator iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Xususan, R. Disney, G. Bonoli, T.Shinkawa, Jun Peng, A.Atkinson, A.Barrientos, A.Rudolph, R. Kent Weaver, M.Fedotov, Yu.Borisenko, M.Goncharovalarning ilmiy ishlarida, shuningdek, A.Vahobov, D.Rustamov, Z.Abdullaev, B.Mamatov, Sh.Rajabov va boshqa olimlarimiz o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida pensiya ta'minoti tizimini isloh etish va rivojlantirish bo'yicha o'z qarashlarini bayon etishgan.

Tadqiqot mavzusi pensiya ta'minoti tizimidagi islohotlarga oid bo'lganligi sababli shu mavzu doirasida tadqiqot olib borgan iqtisodchi-olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, ularning pensiya tizimini xususiyatlari, davlat pensiya ta'minotini isloh qilishdagi yondashuvlari tadqiq etilgan hamda tizimli yondashuv, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Davlatimiz tomonidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda ularning hayot tarzini yanada yaxshilashda pensiya ta'minoti tizimi ahamiyatlidir. Bu o'z o'rnida, pensiya ta'minoti tizimini yanada isloh etishni talab etadi. Quyida pensiya ta'minoti tizimidagi islohotlar yuzasidanfikrlarimizni bayon qilamiz.

- **Birinchidan,** faoliyat olib boradigan pensionerlarga pensiya to'lash. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 12 dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5597-son Farmoniga ko'ra 2019 yil 1 yanvardan boshlab barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lanishi belgilandi.

Pensiyani hisoblash uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi. Barchamizga ma’lumki pensiya hisoblashning o‘ziga xos mehanizmi mavjud. Ya’ni, pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi mavjud tanaffuslardan qat’i nazar, oxirgi o‘n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yildagi (pensiya so‘rab murojaat etgan kishining tanlovi bo‘yicha) ish haqi olinadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Bunda pensiya so‘rab murojaat etgan kishining xohishiga ko‘ra, ishga qabul qilish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish munosabati bilan ish kunlari soni to‘liq bo‘lmagan oylar to‘liq ishlangan kalendar oylar sifatida hisobga olinadi. Pensiyani hisob-kitob qilish uchun eng kam oylik ish haqining 8 barobaridan ortiq bo‘lmagan miqdordagi o‘rtacha oylik ish haqining olinishi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 31 moddasida qat’iy belgilab quyilgan edi.

Shuningdek, pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining 8 barobaridan 10 barobarigacha oshirish bo‘yicha yangi tizim joriy etilmoqda.

Amalga oshirilgan mazkur o‘zgarishga ko‘p vaqt o‘tmasdan O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq (Qonun, 2022) ko‘ra 2023 yil 1 yanvardan boshlab pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori chegarasi pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 10 barobaridan 12 barobariga oshirildi. Natijada 352 ming nafar fuqaroning pensiya miqdori qayta hisob-kitob qilinib, o‘rtacha oylik pensiya miqdori 400 ming so‘mgacha oshadi. Shulardan, 304 ming nafari yoshga doir pensiya oluvchilar, 25,2 ming nafari nogironligi bo‘lgan shaxslar va 23 ming nafari boquvchisini yo‘qotgan shaxslardir.Qonunga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda Pensiya jamg‘armasidan qo‘shimcha ravishda 1,5 trillion so‘mdan ortiq miqdordagi mablag‘lar talab etiladi.

- **Ikkinchidan,** ijtimoiy soliq (yagona ijtimoiy to‘lov). Pensiya jamg‘armasining asosiy daromad manbai ijtimoiy soliqdan ajratmalar hisoblanadi. Ushbu to‘lov ish beruvchi tomonidan umumiy ish haqi fondidan to‘lab beriladi. 2018 yil holatiga ko‘ra yagona ijtimoiy to‘lov miqdori barcha yuridik shaxslar uchun 25 foiz (24,8 foizi – Pensiya jamg‘armasiga; 0,1 foizi – Bandlik jamg‘armasiga; 0,1 foizi – O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga), mikrofirma va kichik korxonalar hamda fermer xo‘jaliklari uchun 15 foiz (14,8 foizi – Pensiya jamg‘armasiga; 0,1 foizi – Bandlik jamg‘armasiga; 0,1 foizi – O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga) etib belgilangan.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi PQ-4086-son Qarorining 8 ilovasining 1 bandiga ko‘ra2019 yil 1 yanvardan boshlab byudjet tashkilotlari va davlat korxonalari, shuningdek, ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi bo‘lgan yuridik shaxslar – 25 foiz miqdorda (99,2 foizi – Pensiya jamg‘armasiga; 0,4 foizi – Bandlik jamg‘armasiga; 0,4 foizi – O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga) hamda 1 bandga tegishli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar – 12 foiz miqdorida (98,4 foizi – Pensiya jamg‘armasiga; 0,8 foizi – Bandlik jamg‘armasiga; 0,8 foizi – O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga) ijtimoiy soliq to‘lashlari belgilandi.

- **Uchinchidan,** ijtimoiy sug‘urta badali. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining mablag‘lari manbalari ichida kelib tushish hajmi bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lovdan keyingi o‘rindagi ahamiyatga ega daromad manbasi hisoblanadi.Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarining stavkasi 2018 yil holatiga ko‘ra 8 foizni tashkil qilardi. Bu yillar davomida ko‘tarilib keldi. 2019 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy sug‘urta badallari bekor qilindi.

- **To‘rtinchidan,** pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar. Ma’lumki, yuridik shaxslar tomonidan maqsadli jamg‘armalarga belgilangan stavkalarda majburiy ajratmalar o‘tkazib boriladi, jumladan, Pensiya jamg‘armasiga ham. Yuridik shaxslar tomonidan 2017 yilda Pensiya jamg‘armasiga tovar(ish, xizmat)larning aylanmasidan 1,6 foiz miqdorda majburiy ajratma o‘tkazilgan.

Yuridik shaxslarning soliq yuki yuqoriligi sabab, soliq tizimida bir muncha o‘zgarishlarni amalga oshirishga sabab bo‘ldi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-son Qarori bilan 2018 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslarning byudjetdan tashqari

Pensiya jamg‘armasiga, Respublika yo‘l jamg‘armasiga va byudjetdan tashqari Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armalariga ajratayotgan majburiy ajratmalari soddalashtirildi va umumiy 3,2 foiz (46,88 (1,5%) foizi – Pensiya jamg‘armasiga; 43,75 (1,4%) foizi – Respublika yo‘l jamg‘armasiga; 9,37 (0,3%) foizi – Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasiga) etib belgilandi. Pensiya jamg‘arasidan to‘lanuvchi nafaqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi PQ-4086-son Qarori bilan Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan zarur ish stajiga ega bo‘lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa (2019 yil 1 yanvar holatiga 243 300 so‘m) va dafn marosimlari uchun to‘lanadigan nafaqalar (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 14 iyundagi 174-son qaroriga asosan EKIHning 4 barobari miqdorida) 2019 yil 1 yanvardan boshlab davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan to‘lab beriladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, davlatimizda so‘nggi yillarda pensiya ta’minoti tizimida ham turli islohotlar bo‘ldi va bularning oqibatida mazkur sohasidagi ba’zi muammolar bartaraf etildi. Shu bilan birga, ishlovchilar va pensionerlar uchun bir muncha yengilliklar berildi. Hususan, 2017 yil mart oyidan pensionerlarga pensiyalar to‘liq naqd ko‘rinishda berilmoqda, ishlovchi pensionerlar uchun pensiyalar to‘liq miqdorda berilishni boshladi, pensiyalar miqdorini oshirish maqsadida pensiyani hisoblash uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi miqdori 8 barobardan 10 barobargacha oshirildi, fuqarolarning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlaridan byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ushlab qolinadigan sug‘urta badallari bekor qilinadi.

Tadqiqotimizdan qilgan xulosalarimiz quydagicha takliflarni berishga turtki bo‘ldi va bu sohani yanada rivojlanitirish va jadallashtirish, keksa yoshdagi, mehnat qobiliyatini yuqotgan, boquvchisini yuqotgan, ko‘p bolali va ehtiyojmand oilalarni yanada qo‘llabquvvatlash maqsadida quyidagicha tadbirlarni amalga oshirsak maqsadga muvofiq bo‘lardi:

- Pensiyani hisob-kitob qilish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi miqdoriga o‘rnatilgan cheklovni bekor qilish kerak. Ushbu cheklov mavjud bo‘lar ekan bo‘lajak pensioner to‘liq pensiya (erkaklar uchun – 60 yosh, kamida 25 yil mehnat staji, ayollar uchun – 55 yosh, kamida 20 yil mehnat staji) (Qonun, 1993) dan to‘liqsiz pensiya (erkaklar uchun – 60 yosh, kamida 7 yil mehnat staji, ayollar uchun – 55 yosh, kamida 7 yil mehnat staji)ni tanlaydi. Chunki, har bir fuqaro o‘zi mehnat qilib topgan daromadidan kelib chiqib pensiya olishi maqsadga muvofiqdir.

- O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarning ko‘pligi pensiya ta’minotining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirishni ya’ni barchasini umumlashtirgan holda O‘zbekiston Respublikasining Pensiya Kodeksini ishlab chiqish kerak.

- Yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat stajini (hozirgi kunda 7 yil) xalqaro me’yorlarga yetkazish maqsadga muvofiq. Chunki, “Ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlari to‘g‘risida”gi 102-sonli Konvensiyasida yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etilgan eng kam staj 15 yil qilib belgilangan. Dunyoning ko‘plab davlatlarida, jumladan MDH davlatlarida, talab etilgan eng kam ish staji 10 – 15 yilga yetkazilgan.

- O‘zbekistonda pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borish ya’ni, erkaklar uchun – 63 yosh, ayollar uchun – 58 yoshgacha oshirish kerak. Chunk, amaldagi pensiya yoshi (erkaklar uchun – 60 yosh, ayollar uchun – 55 yosh) 1956 yilda belgilangan. Usha davrda mamlakatda o‘rtacha umr ko‘rish yoshi 47 yoshni tashkil etgan. Hozirgi kunga kelib mazkur ko‘rsatkich 73,8 yoshni tashkil etmoqda. Bu esa pensiya yoshini oshirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumoti. Sh.Davronov. Pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasi: joriy holati, omillari va ustuvor yo‘nalishlari. Moliyachi ma’lumotnomasi byulleteni. 2018 noyabr №11 (83) son. 9-bet.
2. 2019-2030 yillarda davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh etish Konsepsiyasi. Manba: www.pfru.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining rasmiy veb sayti.
3. Averting the Old Age Crisis. A World Bank Policy Research Report. Published for the World Bank Oxford University Press. 1994. pg 2.
4. Tursunov J.P. Pensiya tizimini isloh etishning xorij tajribasi. Moliyava bank ishijurnali 2 (2022), 108-113.
5. O‘zbekistonRespublikasiPrezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. Manba: www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti
6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ma’lumotlari.
7. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi 938-XII-son Qonunining 7-8 moddalari. Manba: www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi.